

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.04.2021.F.76.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

XAYRULLAYEV SIROJIDDIN AXMADULLO O‘G‘LI

**JAMIYAT BARQARORLIGINI TA‘MINLASHDA
KONSOLIDATSIYA OMILI**

09.00.04 – Ijtimoiy-falsafa

**FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Philosophical Sciences**

Xayrullayev Sirojiddin Axmadullo o'g'li Jamiyat barqarorligini ta'minlashda konsolidatsiya omillari	3
Хайруллаев Сироджиддин Ахмадулло угли Факторы консолидации в обеспечении стабильности общества	21
Khairullaev Sirojiddin Akhmadullo ugli Consolidation factors in ensuring the stability of society	41
E'lon qilingan ishlar ro'uxati Список опубликованных работ List of published works	44

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.04.2021.F.76.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

XAYRULLAYEV SIROJIDDIN AXMADULLO O‘G‘LI

**JAMIYAT BARQARORLIGINI TA‘MINLASHDA
KONSOLIDATSIYA OMILI**

09.00.04 – Ijtimoiy-falsafa

**FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi B2023.4.PhD/ Fal1173 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg‘ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (резюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.namdu.uz) hamda “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Siddiqov Ilyosjon Bahromjonovich
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Dexkanov Narimon Burxonjonovich
siyosiy fanlar doktori (DSc), professor

Muxtorov Azamat Muxtorovich
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.04.2021.F.76.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko‘chasi, 161-uy, Tel.: (+99869) 228-85-01, faks: (+99869) 228-85-02. e-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko‘chasi, 161-uy, Tel: (+99869) 228-85-01).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
2025-yil “_____” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi.

R.T.Jo‘rayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, siyosiy fanlar doktori (DSc), professor

Q.O.Maxkamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.I.Ismoilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahondagi global o'zgarishlar har bir davlat va jamiyatdagi mavjud jarayondan barqaror rivojlanishga bo'lgan to'siqni yengib o'tishga majbur qilmoqda. Xalqaro hamjamiyatlarda sodir bo'layotgan turli ijtimoiy kataklizmlar, qashshoqlik va boylik o'rtasidagi bartaraf etib bo'lmaydigan tafovut, iqtisodiy faoliyat jarayonida tabiiy muhitning vayron bo'lishiga doir munosabatlar zamonaviy jamiyatlarning ajralmas qismiga aylamoqda. Xususan jamiyat barqarorligini ta'minlashda konsolidatsiya omillari ijtimoiy tabaqalanish va jamiyat a'zolarining birdamlik g'oyalari asosida birlashish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Ijtimoiy barqarorlik jamiyatni muvaffaqiyatli isloh qilishning zarur shartlaridan biri sifatida ijtimoiy konsolidatsiya omillarini aniqlash va rivojlantirib borish barqarorlikka erishishning o'ziga xos mexanizmlari va shartlarini o'rganish ushbu hodisaning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatishga imkon bermoqda. O'z navbatida jamiyat barqarorligini ta'minlashdagi konsolidatsiya jarayonlarini aksiologik jihatdan o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy tanazzullar zamonaviy jamiyatlarning rivojlanish tendensiyasiga ijtimoiy konsolidatsiya omillarining ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish bosqichini bosib o'tishga majbur qilmoqda. Jamiyat taraqqiyotidagi konsolidatsiya omillari shaxslararo munosabatlarda jamiyatdagi samaradorlik darajasini ko'rsatuvchi indikator vazifasini bajarmoqda. Bu esa barqaror rivojlanishning sifat jihatidan ijtimoiy-iqtisodiy, milliy-ma'naviy asoslarini jamiyat transformatsiyalashuvidagi taraqqiyot bosqichi bilan siyosiy va ijtimoiy-madaniy tuzumning o'zgarishi natijasida avlodlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni chuqurlashtirmoqda. Bu qarama-qarshiliklarni bartaraf etishning muhim omili hisoblangan konsolidatsiya jarayoni asosiy mezon hisoblanmoqda. Shu sababli ham ilmiy tadqiqot institutlarida jamiyat barqarorligini ta'minlashda konsolidatsiya jarayonlarini ahamiyatiga oid tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng islohotlar Yangi O'zbekistonni barpo etish maqsadida amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev buning uchun o'zgarayotgan jamiyat yangilanishi va yangi bosqichga ko'tarilayotganlik nuqtai nazardan "Yangi O'zbekistonni o'z mehnatidan baxt topib yashaydigan insonlar mamlakatiga, har tomonlama rivojlangan ijtimoiy makonga aylantirish keng ko'lamli islohotlarimizning asosiy maqsadi"¹ ekanligini ta'kidlamoqda. Ya'ni, jamiyatdagi o'zgarishlarning yangi bosqichi mavjud davlatchilikni yanada shakllanishiga, uning siyosiy makonini kengayishiga va ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir etmoqda. Bu jarayonda yuzaga keladigan ijtimoiy murakkab qarama-qarshiliklarni hal qilish va turli ijtimoiy-madaniy, siyosiy-iqtisodiy manfaatlarni ifodalovchi kuchlarni birlashtirish zarurati dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida", 2022 yil 8 avgustdagi O'RQ-788-son "Davlat xizmatlari to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тошкент: "Ўзбекистон", 2022. – Б. 202.

26-martdagi PF-5975-son “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risi” dagi Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlashda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jamiyat barqarorligini ta‘minlashda konsolidatsiya jarayonlarining samaradorligiga oid qarashlar O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov²ning, shuningdek, Prezident Sh.M.Mirziyoyev³ning asarlarida metodologik asos sifatida ochib berilgan. Yangi qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasida ta‘kidlanganidek, “Davlat o‘z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta‘minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi”⁴, bu esa jamiyat barqarorligini ta‘minlash bevosita ijtimoiy konsolidatsiya jarayoniga bog‘liq ekanligini ko‘rsatmoqda.

Jamiyat barqarorligi bevosita jamiyatda hukm surayotgan ijtimoiy-siyosiy hayotga bog‘liq bo‘lgan holda O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida “Harakatlar strategiyasi” va “Taraqqiyot strategiyasi”dagi ustuvor yo‘nalishlar va maqsadlarni jamiyatning konsolidatsiyasi jarayonlarida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga mamlakatni jahon hamjamiyatiga tobora chuqur integratsiyalashib borayotgani, xalqning jahondagi rivojlangan millatlar qatoridan joy olishga intilishi, moddiy – iqtisodiy omillar, yuksak texnologiyalar bilan bir qatorda ma‘naviy omillarni rivojlantirishni ham taqozo etayotganligi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayondir.

Ijtimoiy taraqqiyot nazariyasiga ko‘ra “konsolidatsiya” (lotincha consolido – mustahkamlash, qo‘llab-quvvatlash) birlashish jarayonini, ijtimoiy hamjamiyatning jipslashishini, shaxslarning o‘zaro ta‘sirini kuchaytirishni, jamiyatni tashkil etuvchi guruhlarning birlashishini bildirish uchun ishlatiladigan tushunchadir⁵.

² Каримов И.А. Асарлар тўплами, 1-24 жилдлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996-2015.

³ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 592 б; Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 508 б; Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 400 б; Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Тошкент. Ўзбекистон, 2020. – 456 б; Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент. Ўзбекистон, 2022. – 464 б.

⁴ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Расмий нашр. –Тошкент: “O‘zbekiston”. 2023. – В. 7.

⁵ Alcock P., May M. and Wright Sh. “Social Policy”. 2012. John Wiley & Sons Ltd. –P. 5-6.

Ming yillik ma'naviy meros hisoblangan "Avesto"da jamiyat barqarorligini ta'minlashda shaxslararo munosabatlar ta'lim-tarbiya bilan birdamlikka erishilishi haqida quyidagi fikrlar ta'kidlanadi. Ya'ni, "Tarbiya hayotning eng muhim tirgagi, tayanchi bo'lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash lozimki, u avvalo yaxshi o'qishni, keyin esa yozishni o'rganishi bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin"⁶, bunda shaxslararo munosabatlarni belgilovchi omillar sifatida bilim va jamiyat a'zolarining intellektual salohiyati muhim ekanligi ifodalaydi. XI asrda yashab o'tgan Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida shunday deb yozgan edi: "Hukmdorlarning qaysi birida bilim bo'lsa, bilimga e'tibor kuchli bo'lsa u yaxshi va ezgu ishlarni amalga oshiradi, mamlakatda qonun-tartibotlarga, adolat va bunyodkorlikka rivoj beradi"⁷. Bizningcha, bunda ijtimoiy konsolidatsiyaning ma'rifatli avlodni tarbiyalashdagi zarurati sifatida so'nggi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan uzluksiz ta'lim tizimidagi islohotlar, xalqaro standartlar asosida amalga oshirilayotgan aholini ijtimoiy muhofazalashning keng ko'lamli ishlariga namoyon bo'lmoqda.

Jamiyat barqarorligini ta'minlashda ijtimoiy konsolidatsiya muammosini tashkil etuvchi asosiy masalalar Qadimgi Sharq ijtimoiy-siyosiy tafakkurida ko'tarilgan bo'lsada, uning ishlash prinsipi va normasi asosidagi qarashlar Qadimgi Yunonistonda ham o'rganilgan. O'sha davr faylasuflarining qarashlari jamiyat va davlatni identifikatsiyalash bilan tavsiflanadi. Aynan davlat odamlarni jamiyatga birlashtiruvchi, ularni farqlovchi kuch vazifasini bajaradi. Bu g'oyalar birinchi navbatda Demokrit, Platon va Arastu ta'limotlarida o'z ifodasini topgan.

Zamonaviy G'arb tadqiqotchilaridan ijtimoiy nazariya klassiklarining yondashuvlariga ko'ra konsolidatsiya (ijtimoiy birdamlik)⁸ mavzusi ijtimoiy falsafadagi "an'anaviy" va "klassik" mavzulardan biri sifatida o'rganilgan. Chunki u ijtimoiy borliqda konsolidatsiya butunlik mavjudligining asoslari haqida fundamental jarayondir. Faylasuf Avgust Kontning qarashicha "Ijtimoiy birdamlik, asosan, inson mehnatining har xil turlarini doimiy taqsimlash orqali yaratiladi"⁹. Jamiyatning birdamlik holatini shakllantirish va ta'minlashda birlamchi ijtimoiy guruhlarni o'rniga katta e'tibor qaratiladi. Mehnat taqsimoti, birdamlik muammosiga analitik nuqtai nazar sifatida esa, boshqa klassik faylasuf Emil Dyurkgeymning yondashuvi o'ziga xoslik kasb etadi. Uning qarashlariga ko'ra, "Bu jarayonni yanada ixtisoslashtirish nafaqat mehnat unumdorligini oshirishga, balki ijtimoiy munosabatlarning asoslarini o'zgartirishga olib keladi, bu esa ijtimoiy birdamlik xarakterini o'zgartiradi. Ushbu o'zgarishni tasvirlash uchun Dyurkgeym mexanik birdamlikdan organikaga o'tishning yangicha sxemasini yaratadi, bu yerda birinchisi "an'anaviy" jamiyatning o'ziga xos xususiyati bo'lib, uning barcha xususiyatlari (yopiqlik, arxaik fikrlash, mehnatning past tabaqalanishi va boshqalar), ikkinchidan esa "zamonaviy" jamiyatga xosdir (oldingi holatining ko'pgina fazilatlarini yengib o'tgan)"¹⁰. Shuningdek, an'anaviy jamiyatda qabul qilingan birdamlik asoslarini buzganlik uchun jazolash choralarining odatiy

⁶ Макавельский А.О. Авесто. Баку, «Азербайжан», 1960. –Б. 98.

⁷ Юсуф Хос Хожиб "Кутадгу билиг". Тошкент. "O'qituvchi". 2016. – Б 85.

⁸ Политология. Словарь. – РГУ. В.Н. Коновалов. 2010. – С. 145.

⁹ Конт О. Дух позитивной философии: Слово о положительном мышлении. Пер. с фр. – Изд. 2-е. – М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2011. – 80 с.

¹⁰ Дюркгейм, Э. О разделении общественного труда / Э. Дюркгейм. – М.: Канон, 1996. – С 101.

og‘irligini, birinchi navbatda, an’anaviy jamiyatda birdamlikning ijtimoiy-madaniy manbalari to‘liq o‘rganilmaganligini ifoda etadi.

Keyingi davr tadqiqotchi olimlari R.Darendrof va A.Kozer “Haqiqiy barqarorlik yo‘q, har qanday barqarorlik beqarorlikning arafasi yoki muayyan beqarorlikdan keyingi holati, jamiyatning yangi beqarorlik oldidan tin olish davri”¹¹ dir, degan fikrni ilgari suradi.

Finlandiya tajribasidan o‘rganish mumkinki, “Professor Yuri Manninen tomonidan yaqinda o‘tkazilgan tadqiqot natijasiga binoan, katta yoshdagilar uchun ta’limga sarflangan har bir yevro kamida uch barobar ko‘payib qaytmoqda. Katta yoshdagilar o‘quv markazlariga kiritilgan bir yevro, 3 yevrodan 6 yevroga olib kelmoqda! Ma’rifat faoliyatiga qo‘shilgan mablag‘lar sog‘likni saqlash va ijtimoiy himoya sohasidagi mablag‘ tejashga olib keladi”¹². Bu esa jamiyat taraqqiyotiga konsolidatsiya omillari sifatida sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya sohasidagi islohotlariga alohida e’tibor berish zarurligini asoslaydi.

Yurtimiz faylasuf olimlaridan B.Amanov fikricha, “Shuni alohida ta’kidlash kerakki, har bir mamlakatda modernizatsiyalash jarayoni jamiyatning ustuvor sohaslarida chuqur islohotlarni amalga oshirishni talab etadi. Natijada, jamiyatda an’anaviylikdan voz kechish, eskilik qoldiqlariga barham berish va evolyutsion ijobiy o‘zgarishlarning transformatsiyalashuv jarayonlari kechadi”. Ya’ni, “Ta’limning keng tarqalishi, kasbiy mahorat (professionalizm) kuchayishi, intellektual maxsus kasb institutlari shakllanishi, ommaviy kommunikatsiyaning rivojlanishi, kengayib borayotgan ijtimoiy makonga moslashib boruvchi yangi individual odatlar, qiziqishlar jabhasining kengayishi, fan va texnikaga ishonchning oshishi va inson qadr-qimmatiga munosabatning o‘zgarishi sodir bo‘ladi”¹³. Bu esa o‘z navbatida ijtimoiy hayotning quyidagi jabhalarini konsolidatsiyalashuvga sababdir.

Turli sohalardagi mutaxassis olimlar jamiyat barqarorligida konsolidatsiya omillarini qisman o‘rgangan bo‘lib, jumladan, B.Berdiyev O‘zbekistonda siyosiy modernizatsiya jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlarini, Sh.Mamatqulov O‘zbekistonda yoshlar faolligini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy tahlilini, O.Nazarmatov sog‘liqni saqlash sohasini boshqarish mexanizmini takomillashtirishni, M.Yusupov qishloq aholisining tibbiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari, .A.Karimov fuqarolar sog‘lig‘ini saqlashning fuqarolik-huquqiy normalar vositasida ta’minlash masalalari, F.Umarova modernizatsiya va o‘zbek etnotafakkuridagi yangilanish jarayonlarini, D.Amrudinova jadidchilik ta’limotida komil inson konsepsiyasining falsafiy-ijtimoiy mohiyatini, A. Qodirov O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishning ijtimoiy pedagogik texnologiyalari, M. Yusupov Qishloq aholisining tibbiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy masalalariga oid ilmiy tadqiqotlar¹⁴ olib borilgan.

¹¹ Дарендорф Р. Современный социальный конфликт: очерк политики свободы. М., 2002. –С 41.

¹² Илкка Тайпале. Финляндиянинг 100 та ижтимоий инновацияси/ Финляндия қандай қилиб Финляндия бўлди: сиёсий, ижтимоий ва маиший инновациялар. –Тошкент, “Sharq”, 2019. –Б. 155.

¹³ Амонов Б.А. Жамиятни модернизациялаш концептуал моделларининг сиёсий-фалсафий тахлили. Сиёсий фанлар доктори (DSc) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2019. –Б. 14.

¹⁴ Бердиев Б.О. Ўзбекистонда сиёсий модернизация жараёнларининг ўзига хос хусусиятлари. Сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2019; Маматқулов Ш.Т.

Falsafiy adabiyotlar, xorij va O‘zbekistonlik olimlarning jamiyat barqarorligini ta’minlashda konsolidatsiya omillariga oid ilmiy ishlarning tahlili ularda konsolidatsiya jarayonini predmet sifatida o‘rganilmaganidan dalolat beradi. Shuningdek, konsolidatsiyani ijtimoiy ahamiyatini maxsus tadqiq etilmaganligi, muammoning etarli asoslanmaganligi bois, ushbu dissertatsiya ishi jamiyat barqarorligini ta’minlashda konsolidatsiya jarayonlarini zamonaviy jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tashkilot yoki ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg‘ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 01-1-345-con “O‘zbekistonning barqaror strategik taraqqiyotida fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish va ma’naviy-axloqiy xavfsizlikni ta’minlash konsepsiyalarining ahamiyati” mavzusidagi yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi jamiyatning ijtimoiy-madaniy barqarorligini ta’minlashda konsolidatsiya jarayonining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jamiyat barqarorligini ta’minlashda ijtimoiy konsolidatsiyani ijtimoiy-falsafiy omillarini mazmun jihatdan yangilanganligini ochib berish;

ijtimoiy konsolidatsiyani o‘rganish uchun analitik vosita sifatidagi omilli yondashuvning evristik qiymatini ilmiy asoslash;

zamonaviy jamiyatning ijtimoiy konsolidatsiya jarayonlariga ijtimoiy-iqtisodiy omilning ta’sirining mohiyati davlatning ijtimoiy siyosati va ijtimoiy mas’uliyat ekanligini dalillash;

ijtimoiy-iqtisodiy omilga aralashadigan va zamonaviy jamiyatning konsolidatsiya jarayonlarini belgilaydigan ijtimoiy-psixologik omillarning mazmunini ochib berish;

fuqarolik faolligi omilining ijtimoiy konsolidatsiya ta’sirida, uning faoliyatga asoslanganligi va ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-falsafiy omillar indikatorini ekanligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning obykti jamiyatda ijtimoiy konsolidatsiyalashuv jarayonlari olingan.

Tadqiqotning predmeti konsolidatsiya va ijtimoiy konsolidatsiyalashuv omillari tashkil etadi.

Ўзбекистонда ёшлар фаоллигини юксалтиришнинг ижтимоий-фалсафий таҳлили. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Самарқанд, 2021; Назарматов О.С. Соғлиқни сақлаш соҳасини бошқариш механизмини такомиллаштириш. Иктисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2020; Каримов А.А. Фуқаролар соғлиғини сақлашнинг фуқаролик-хукукий нормалар воситасида таъминлаш масалалари. Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси Автореферати. –Тошкент, 2020; Умарова Ф.С. Модернизация ва ўзбек этнотафаккуридаги янгиланиш жараёнлари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2022. Амридинова Д.Т. Жаҳидчилик таълимотида комил инсон концепциясининг фалсафий-ижтимоий моҳияти. Фан доктори (DSc) диссертацияси автореферати. –Самарқанд, 2021; Қодиров А. Ўзбекистонда маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини оширишнинг ижтимоий педагогик технологиялари. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2022; Yusupov M.S. Qishloq aholisining tibbiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Samarqand, 2023.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiylik, mantiqiylik, qiyosiy tahlil, tizimlilik, umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jamiyat barqarorligini ta'minlashda ijtimoiy konsolidatsiyani ijtimoiy-falsafiy omillarini mazmun jihatdan yangilanganligini ochib berilgan;

ijtimoiy konsolidatsiyani o'rganish uchun analitik vosita sifatida omilli yondashuvning evristik qiymatini ilmiy asoslari aniqlangan;

zamonaviy jamiyatning ijtimoiy konsolidatsiya jarayonlariga ijtimoiy-iqtisodiy omilning ta'sirining mohiyati, davlatning ijtimoiy siyosati va ijtimoiy mas'uliyatlilik omillari ratsional jihatdan aniqlangan;

ijtimoiy-iqtisodiy omilga aralashadigan va zamonaviy jamiyatning konsolidatsiya jarayonlarini belgilaydigan ijtimoiy tabaqalanishi va konsolidatsiya jarayonlarini kambag'allikka qarshi kurash vositasi ekanligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida jamiyat barqarorligini ta'minlashda konsolidatsiya omillari va jamiyatdagi strategik o'zgarishlar natijasida konsolidatsiya va ijtimoiy konsolidatsiyaga bo'lgan ehtiyoj jamiyat uchun samaradorlik darajasi ekanligi ilmiy tadqiq etilgan;

jamiyatda ijtimoiy konsolidatsiyaning omillari zamonaviy jamiyatlarni rivojlanishga doir uchta jihati asoslangan;

zamonaviy dunyoda o'qituvchilarning intellektual salohiyatini oshirish jamiyat rivojlanishini ta'minlovchi mexanizmlari dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalarda muhokama qilingani, xulosalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zaro munosabatlar rivojining qonuniyatlarini yangi davrga xos bo'lgan jarayonlar nuqtai nazardan tadqiq qilingan, shuningdek, kundalik va ilmiy faoliyatda foydalanishning o'rnini aniqlashga oid ilmiy tadqiqotlar olib borishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'lim muassasalarida "Ijtimoiy falsafa", "Sotsiologiya" va "Kasbiy etika" (Ichki ishlar xodimlari uchun) kabi fanlar bo'yicha ma'ruza matnlari, darslik va o'quv qo'llanmalarini tayyorlash, shuningdek, yosh harbiy xizmatchilarning vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ustuvor vazifalarini amalga oshirishda hamda jamoat tashkilotlarida ilmiy-ma'pifiy tadbirlarni tashkil etishda namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jamiyat barqarorligini ta'minlashda konsolidatsiya omillarining ijtimoiy-falsafiy jihatlari bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

Jamiyat barqarorligini ta'minlashda ijtimoiy konsolidatsiyani ijtimoiy-falsafiy g'oyalarini reflektiv mazmuniga oid yangiliklaridan O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'mondonining 2023-yil 14-dekabrda 102-son farmoyishiga asosan ishlab chiqilgan "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo'linmalarida 2024-yilda harbiy xizmatchi (xodim)larning huquqiy ongi va

madaniyatini yuksaltirish, harbiy intizom hamda huquq-tartibotni mustahkamlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va ijtimoiy-huquqiy himoyani amalga oshirish bo'yicha kompleks reja"ning I.Tashkiliy-amaliy tadbirlar bandining "Shaxsiy tarkibni huquqiy ongini va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda, eng avvalo, ta'lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e'tibor qaratish nomli 3-bo'limida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasining 2024-yil 20-apreldagi №11/3449/B-son Ma'lumotnomasi). Natijalarning joriy qilinishi targ'ibot tadbirlari qatnashchilarida jamiyatdagi strategik o'zgarishlar natijasida konsolidatsiya va ijtimoiy konsolidatsiyaga bo'lgan ehtiyojni boyitishga xizmat qilgan.

Ijtimoiy konsolidatsiyani o'rganish uchun analitik vosita sifatida omilli yondashuvning evristik qiymatini ilmiy asoslanish kerakligiga oid ilmiy yangiliklaridan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2022-2023-yillarda o'tkazilgan targ'ibot faoliyatida tatbiq etilgan. Jumladan, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining III-yo'nalishida belgilangan "G'oya va mafkura masalasi hamda ilm-fan va ma'rifat targ'iboti" 14- bandi "Ijtimoiy-ma'naviy va mafkuraviy jarayonlarni tadqiq qilish texnologiyalari bo'yicha xorij tajribasini o'rganish" mavzusida o'tkazilgan targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil 12-maydagi №184/1-son ma'lumotnomasi). Natijada jamiyatdagi strategik o'zgarishlar natijasida konsolidatsiya va ijtimoiy konsolidatsiyaga bo'lgan ehtiyoji jamiyat uchun samaradorlik darajasini ilmiy tadqiq etish imkoniyatlariga doir targ'ibot materiallari, o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqishga xizmat qilgan.

Zamonaviy jamiyatning ijtimoiy konsolidatsiya jarayonlariga ijtimoiy-iqtisodiy omilning ta'sirining mohiyati, davlatning ijtimoiy siyosati va ijtimoiy mas'uliyat ekanligi ratsional omil ekanligi aniqlangan O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'mondonining 2023-yil 14-dekabrdagi 102-son farmoyishiga asosan ishlab chiqilgan "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo'linmalarida 2024-yilda harbiy xizmatchi (xodim)larning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, harbiy intizom hamda huquq-tartibotni mustahkamlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va ijtimoiy-huquqiy himoyani amalga oshirish bo'yicha kompleks reja"ning I.Tashkiliy-amaliy tadbirlar bandining "Shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash" g'oyalarini targ'ib qilish" nomli 2-bo'limi hamda "Harbiy xizmatchi (xodim)lar o'rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarini o'rgatish bilan uyg'un holda tashkil qilish, har bir harbiy xizmatchi (xodim)da davlat ramzlari bilan faxrlanish tuyg'ularini shakllantirish orqali mamlakatga daxldorlik hamda vatanparvarlik hissini kuchaytirish" nomli vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasining 2024-yil 20-apreldagi №11/3449/B-son Ma'lumotnomasi). Natijalarning jamiyatdagi strategik o'zgarishlarni ijtimoiy konsolidatsiyaga bo'lgan ehtiyoji hamda ijtimoiy birdamlikni ta'minlashning muhim omili ekanligiga xizmat qilgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy omilga aralashadigan va zamonaviy jamiyatning konsolidatsiya jarayonlarini belgilaydigan ijtimoiy tabaqalanishi va konsolidatsiya jarayonlarini kambag‘allikka qarshi kurash vositasi ekanligi isbotlanganligiga oid ilmiy yangiliklaridan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2022-2023-yillarda o‘tkazilgan targ‘ibot faoliyatida tatbiq etilgan. Jumladan, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining III-yo‘nalishida belgilangan “G‘oya va mafkura masalasi hamda ilm-fan va ma’rifat targ‘iboti” 14- bandi “Ijtimoiy-ma’naviy va mafkuraviy jarayonlarni tadqiq qilish texnologiyalari bo‘yicha xorij tajribasini o‘rganish” mavzusida o‘tkazilgan targ‘ibot ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2023-yil 12-maydagi №184/1-son ma’lumotnomasi). Natijada jamiyatdagi strategik o‘zgarishlar natijasida konsolidatsiya va ijtimoiy konsolidatsiyaga bo‘lgan ehtiyoji jamiyat uchun samaradorlik darajasini ilmiy tadqiq etish imkoniyatlariga doir targ‘ibot materiallari, o‘quv qo‘llanmalarini ishlab chiqishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma’ruza shaklida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, OAKning dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola (3 ta respublika, 1 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 132 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI.

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, obykti va predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya hajmi bo‘yicha ma’lumotlar asoslangan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Jamiyat barqarorligini ta’minlashda konsolidatsiya omillarining nazariy-metodologik asoslari**” deb nomlanib unda jamiyat barqarorligida konsolidatsiya jarayonining konseptual asoslari, jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishi va konsolidatsiya jarayonlarini rivojlanish sifatidagi zarurati ochib berilgan.

Uning birinchi paragrafi “**Jamiyat barqarorligida konsolidatsiya jarayonining konseptual asoslari**”da ijtimoiy falsafa tarixidagi ijtimoiy konsolidatsiya haqidagi g‘oyalar birdamlik, ijtimoiy yaxlitlikni yaratuvchi va uning mavjudligini qo‘llab-quvvatlovchi mexanizmlar va jarayonlar sifatida o‘rganilgan. Ijtimoiy fan shakllanishining klassik davrida (XIX-asr) yaratilgan birdamlikning asosiy konseptualizmi qisman o‘rganilgan. Shu bilan birga,

insoniyat jamiyati tabiatining barcha bog‘lovchi yoki konyunktiv hodisalarining immanentligini hisobga olgan holda, ular to‘g‘risida ma’lum bir mulohaza ijtimoiy falsafa fan sifatida shakllanishidan oldin ham paydo bo‘lishi kerak edi, deb taxmin qilish mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi.

“Konsolidatsiya” barcha sohalarda keng ishlatiladigan tushuncha bo‘lib, jumladan, iqtisodiyotda – o‘shish yoki pasayishdan keyin birja kursini barqarorlashtirish ma’nosida, tibbiyotda – bu sinishni davolash jarayoni (suyak kallusining shakllanishi), huquqda esa – normativ hujjatlarni tizimlashtirishning bir turi sifati”¹⁵ da foydalaniladi.

Ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi “konsolidatsiya” (lotincha con - birga, solido - mustahkamlash) - biror narsani (shaxslar, guruhlar, tashkilotlar, harakatlar) mustahkamlash, birlashtirish degan ma’noni anglatadi. Bu esa aynan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasida ta’kidlanganidek, “... jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiri”¹⁶lishi jamiyat barqarorligini ta’minlashda konsolidatsiya jarayoniga bog‘liq bo‘lishini anglatadi.

Ta’kidlash lozimki, birdamlik tushuncha, atama sifatida antik mualliflar asarlarida uchramaydi, lekin aslida u polis va davlatga muhabbat (vatanparvarlik), do‘stlik, birdamlik kabi epifenomenlari orqali tasvirlangan. Xususan, E.V. Rung vatanparvarlik tushunchasi Qadimgi Yunonistonda ham, bugungi kunda ham deyarli bir xil ekanligini isbotlaydi. Muallif ilm-fanda mavjud bo‘lgan polis va pan-grek vatanparvarligini bo‘lishning qobiliyatsizligini ta’kidlaydi, chunki ular bir xil hodisani aks ettiradi, bizning fikrimizcha, bunga rozi bo‘lish qiyin. Bu yerda yagona va juda shartli farq bu ikki o‘lchovning darajasi va mazmuni xususiyatlaridadir. “Polis ham, butun Ellada ham yunonlar tomonidan o‘z vatanlari sifatida qabul qilingan. Bundan tashqari, polis vatanparvarligida oilaviy va siyosiy imtiyozlar, pan-grek vatanparvarligida esa etnik va ijtimoiy-madaniy imtiyozlar birinchi o‘ringa chiqadi”¹⁷. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, birinchi holatda ijtimoiy konyunksiya mahalliy jamoa darajasida, ikkinchisida esa jamiyat darajasida sodir bo‘ladi.

Bu paragrafda shuningdek, milliy yuksalish konsepsiyasining tadrijiy rivojlanish bosqichlari “Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak”, “Inson manfaatlari hamma narsadan ulug‘”, “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi”, “Xalq bizdan rozi bo‘lsa, ishimizda unum va baraka bo‘ladi”, “Adolat–qonun ustuvorligida”, “Ma’naviyat bo‘lmagan joyda hech qachon adolat bo‘lmaydi!”, “Insonlarning dardu tashvishlarini o‘ylab yashash–odamiylikning eng oliy mezonidir” singari tamoyillar hayotga joriy qilinmoqda. Bu esa xalq irodasini barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi zarur.

Jamiyatning konsolidatsiyalashuvi qadriyatlarni funksional tuzilishiga ham ta’sir etishi o‘rganilib, “Odamlarning ehtiyojlaridan kelib chiqadigan manfaatlari odatda tanqis resurslarga qaratiladi va bu resurslar uchun kurashda, shaxslar va

¹⁵ Губский Е.Ф. Философский энциклопедический словарь. –Москва, 1989. – С. 157.

¹⁶ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Расмий нашр. –Тошкент: “O‘zbekiston”. 2023. – В. 7.

¹⁷ Рунг Э.В. Понятие «патриотизм» и его древнегреческие коннотации / Э.В. Рунг // Проблемы истории, филологии, культуры, 2013. –№2. –С. 307.

ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi ziddiyatlarda namoyon bo'ladi. Aksincha, madaniyat kabi qadriyatlarning asosiy vazifasi ijtimoiy muhitni o'zgartirishga, umuman olganda, jamiyatda konsensusni shakllantirishdan iboratdir. Shu bilan birga, ularning turli xil madaniy turlari bilan bog'liq afzal qilingan va rad etilgan qadriyatlarning to'qnashuvi, shuningdek, ijtimoiy-madaniy nizolar bilan birga bo'lishi ham mumkin"¹⁸. Buning uchun o'zgarayotgan jamiyat yangilanishi va yangi bosqichga ko'tarilayotganlik nuqtai nazaridan "Yangi O'zbekistonni o'z mehnatidan baxt topib yashaydigan insonlar mamlakatiga, har tomonlama rivojlangan ijtimoiy makonga aylantirish keng ko'lamli islohotlarimizning asosiy maqsadi"¹⁹ qilib olinganligi asoslangan.

Mazkur bobning 2-paragrafi "**Jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishi va konsolidatsiya jarayonlari**" davlat faoliyati va siyosatdagi konsolidatsiya jarayonlari turli omillar, jumladan, institutsional, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy majmuining ta'siri bilan belgilanishi ijtimoiy-falsafiy tadqiq etilgan. Ushbu xilma-xillik orasida tarkibiy omillar ham muhim rol o'ynaydi, bu esa fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida ijtimoiy tuzilmaning deterministik o'ziga xosligi demokratlashtirish va siyosiy konsolidatsiya bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.

Jamiyat barqaror rivojlanishining ijtimoiy tuzilishi ko'ra o'ziga xos strukturani shakllantiradi. Ichki mexanizmlar ta'sirida transformatsiyalashuvning zamonaviy bosqichi yangi ijtimoiy tuzilmaning shakllanishiga yordam beradi. Bunda jamiyat barqarorligi jamiyatning madaniy tarkibiy qismlari bilan bevosita bog'liq holda ijtimoiy tabaqalanish jarayonlariga konsolidatsiya ta'sir qilishi ilmiy o'rganilgan.

Rivojlanayotgan ijtimoiy formatsiyalardan biri "yangi o'rta sinf" bo'lib, u o'ziga xos mezon va funksiyalariga ko'ra ajralib turadigan mustaqil ijtimoiy-strukturaviy formatsiyadir. O'rta sinfning umumiy qabul qilingan mezonlariga quyidagilar kiradi: mulkchilik, ta'lim darajasi, kasbiy va ijtimoiy mavqei va boshqa o'ziga xos xususiyatlar. Zamonaviy terminologiyada o'rta sinfning umumiy mezonlari - har xil turdagi kapitalning ma'lum miqdori, uning vakillariga tegishlidir. Biroq, zamonaviylik ijtimoiy tengsizlik va iqtisodiy beqarorlik sharoitida, ijtimoiy guruhlar va qatlamlar o'rtasidagi chegaralarni olib tashlaydi. Shu jarayonda konsolidatsiya muhim vazifani bajarib ular o'rtasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etadi.

Xullas, konsolidatsiya g'oyasining siyosiy kun tartibida uzoq vaqt davomida dolzarbligi yana shuni ko'rsatadiki, "Ma'muriy choralar bilan turli darajalarda hokimiyat vertikalini qurish, odamlarning fikrlarini inobatga olmasdan, belgilangan vazifalarni shakllantirish va ko'rsatma bilan majburlash muayyan "ijtimoiy guruhlar"ni jipslashtirishini to'liq amalga oshirishi qiyin bo'lgan jarayondir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Jamiyat barqarorligini ta'minlashda ijtimoiy konsolidatsiya omillarining dialektik xususiyatlari**" deb nomlanib,

¹⁸ Глобализация и социальные институты. Социологический подход. –М.: Наука, 2010. – С. 19.

¹⁹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. –Тошкент: "Ўзбекистон", 2022. – Б. 202.

unda ijtimoiy konsolidatsiyaning muhim jihatlari sifatida sog‘liqni saqlash, ta’lim va uy-joy bilan ta’minlash kabi hayotiy muhim sohalardagi ijtimoiy norozilik sabablarini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar mohiyati ekanligi asoslangan. Shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimdagi islohotlar jamiyat konsolidatsiyasi jarayoniga katta ijobiy ta’sir etishi ilmiy-falsafiy jihatlari ochib berilgan.

Mazkur bobning 1-paragrafida **“Ijtimoiy konsolidatsiya omillarini amalga oshirishning umummilliy harakatga aylantirish zarurati”** jamiyatda konsolidatsiyasi jarayoni o‘tgan asrning oxirida jamiyat ichki hayotining barcha asoslarini chuqur o‘zgartirishdan boshlab o‘z dolzarbligi oshirib kelgan. U dastlab ko‘p madaniyatli, ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali mamlakatlarda namoyon bo‘la boshlagan bo‘lsa, hozirda barcha zamonaviy jamiyatlar uchun xos tushuncha sifatida o‘z ahamiyatiga ega ekanligi ijtimoiy-falsafiy jihatdan asoslangan.

Tadqiqotda ijtimoiy konsolidatsiyaning omillari zamonaviy jamiyatlarni rivojlanishi nuqtai nazaridan asosan uchta jihatdan iborat ekanligini ta’kidlaydi.

Birinchidan, yangilanayotgan jamiyatda axloqiy qadriyatlarni yoki mafkuraviy komplekslarning yo‘qligi, ikkinchidan, avlodlararo ijtimoiy-madaniy muloqotning tanazzuli natijasida birdamlikning yo‘qolishi, uchinchidan, qadriyatlar uzluksizligi (ideal yoki ramziy, yoki ijtimoiy-madaniy jihatlardan)ni saqlash zaruratidir.

Inson uchun tabiiy qadriyatlar bilan bir qatorda ijtimoiy-siyosiy, madaniy ma’naviy, axloqiy qadriyatlar ham katta ahamiyat kasb etadi. Bashariyat ko‘p ming yillik tarixi davomida erkin, baxtli va go‘zal hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan xilma xil kadriyatlarni yaratdi, inson, uning huquqi va erkinliklarini himoya qiladigan qonunlar, siyosiy tashkilotlarni bunyod etgan. Insonning go‘zal yashashi uchun zarur bo‘lgan badiiy estetik qadriyatlarni rivojlantirdi, kishilarning bir biriga va jamiyatga bo‘lgan munosabatlarini belgilab beradigan axloqiy qoidalar majmuasini joriy eta boshladi.

Tadqiqotchi M.Nazirovning fikriga ko‘ra “Markaziy Osiyo davlatlarining har birida tarixiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy jihatdan ko‘p qirrali omillar ta’sirida shakllangan o‘ziga xos qadriyatlar tizimi jamiyat taraqqiyotiga, yangi demokratik davlatchilik institutlarining shakllanish jarayonlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi”²⁰. Demak, o‘zaro bog‘liqlik, o‘zaro tushunib yashash ko‘pmillatli davlatlarning kelajagini belgilab beradi.

Bobning 2-paragrafi **“Jamiyatda ijtimoiy konsolidatsiyaning xavfsizlikni ta’minlash va sog‘liqni saqlash tizimi bilan aloqadorligi”** da kuchli ijtimoiy siyosat olib borish O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan bozor islohotlari milliy modelining eng muhim prinsipi hisoblanishi o‘rganilgan. U keng doiradagi masalalarni, jumladan aholi daromadlarini tartibga solish, bandlikni ta’minlash va yangi mehnat munosabatlarini shakllantirish, ijtimoiy himoya va aholining ayrim toifalari va guruhlarini qo‘llab-quvvatlash, sog‘liqni saqlashni rivojlantirish, jismoniy tarbiya va sport, ta’lim masalalarini o‘z ichiga oladi.

²⁰ Назиров М.М. Марказий Осиё давлатларидаги сиёсий жараёнлар эволюциясининг ўзига хос хусусиятлари. Сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2020. – Б. 14.

Jamiyat barqarorligini ta'minlashda ijtimoiy konsolidatsiya jarayonlarining muhimligi shundan iboratki, BMT tomonidan 2015 yilda qabul qilingan "Barqaror rivojlanish maqsadlari"ga muvofiq O'zbekiston ham boshqa davlatlar qatori Barqaror rivojlanish bo'yicha global kun tartibiga qo'shildi. Bu bilan iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlash va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi dolzarb majburiyatlarni oldi. Ijtimoiy konsolidatsiyaning muhim jihatlari sifatida sog'liqni saqlash, ta'lim va uy-joy bilan ta'minlash kabi hayotiy muhim sohalaridagi ijtimoiy norozilik sabablarini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rishni taqozo etadi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yurtimizning jahon hamjamiyatidan o'zining munosib o'rnini egallashi bilan birga har bir fuqaroga munosib turmush shart-sharoitini ta'minlashga "Biz xalqimizning ana shu orzuniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun ikkita masalaga, ya'ni ichki ishlar va sog'liqni saqlash tizimni isloh qilishga katta e'tibor qaratyapmiz"²¹, deb ta'kidlagan edi.

